

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING O‘RNI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-519-523>

Diyora Abdumajidova Ashirqul qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola O‘zbekistonda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlarning o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqot milliy qadriyatlarning mohiyatini, ularning oilaviy munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini, avloddan avlodga uzatish mexanizmlarini va zamonaviy chaqiriqlar sharoitida ularni asrash zaruratini o‘rganadi. Maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyati hamda milliy qadriyatlarning ijtimoiy institutlar orqali singdirilishidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor oilaviy barqarorlikni ta’minlash, ajrimlarning oldini olish va yoshlarning barkamol oila qurishida milliy an’analar va urf-odatlarining hal qiluvchi rolini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, Milliy qadriyatlar, Yoshlar, Oilaviy ta’lim, Mahalla, An’analar, Ajrimlar, Qadriyatlarni uzatish

Abstract. This scientific article analyzes the role of national values in preparing youth for family life in Uzbekistan. The research explores the essence of national values, their significance in shaping family relations, mechanisms of intergenerational transmission, and the necessity of preserving them amidst modern challenges. The article thoroughly examines including the activities of Youth Family Life Preparation Centers, as well as existing problems and opportunities in integrating national values through social institutions. Primary attention is given to highlighting the crucial role of national traditions and customs in ensuring family stability, preventing divorces, and fostering harmonious family formation among youth.

Keywords: Family, National values, Youth, Family education, Mahala, Traditions, Divorces, Value transmission.

Аннотация. Данная научная статья анализирует роль национальных ценностей в подготовке молодежи к семейной жизни в Узбекистане. Исследование изучает сущность национальных ценностей, их значение в формировании семейных отношений, механизмы передачи из поколения в поколение и необходимость их сохранения в условиях современных вызовов. В статье подробно рассматриваются политические документы Узбекистана, включая деятельность Центров подготовки молодежи к семейной жизни, а также существующие проблемы и возможности внедрения национальных ценностей через социальные институты. Основное внимание уделено освещению решающей роли национальных традиций и обычаев в обеспечении стабильности семьи, предотвращении разводов и формировании гармоничных семей у молодежи.

Ключевые слова: Семья, Национальные ценности, Молодежь, Семейное образование, Махалла, Традиции, Разводы, Передача ценностей.

KIRISH

Jamiyatning asosiy poydevori bo‘lgan oila, oila institutining mustahkamligi har qanday davlat taraqqiyoti va barqarorligining garovidir. "Tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, butun organizm o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan

butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.”[1] Har bir oilaning jamiyat taraqqiyotida, shu muhitda voyaga yetgan farzandlar komolotida oilaning o‘rni beqiyosdir. Har bir ota-ona farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor bermog‘i, farzandlarga ko‘zgu kabi namuna bo‘lishi lozimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Ulug‘ jadid ma‘rifatparvari Abdurauf Fitrat "Ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanishi kerak, ammo farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan ota-onaning o‘zlari avvalo, tarbiya ko‘rgan, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo‘lishlari kerak, ularning har ikkisi o‘z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular farzandni jisman emas, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur"[2]— deganlar. Oila bu muqaddas dargoh. Bu dargohning mustahkam bunyod etish albatta oila qurayotgan yoshlarga bog‘liq. Har bir qurilgan nikoh ham yaxshi oilani vujudga keltiravermaydi. Bu ularning olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bu haqida Abdurauf Fitratning "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat, hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif yoki xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e‘tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq..." [2] degan so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Bugungi kunda globalizm, texnologik rivojlanish va axborot asrining shiddatli o‘zgarishlari sharoitida yoshlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda, ayniqsa, oxirgi yillarda oila institutini rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu borada hali ham jiddiy muammolar mavjud. Xususan, dastlabki nikohlarning oldini olish, oilaviy nizolar va ajrimlarni kamaytirish borasidagi sa‘y-harakatlar yetarli darajada muvaffaqiyatga erishmayotgani, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimida ayrim kamchiliklar borligidan dalolat beradi [2]. Bu holat, avvalo, milliy qadriyatlarimizning yoshlar ongiga singdirilish darajasi va usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Oilaviy qadriyatlar moddiy va axloqiy-ma‘naviy qadriyatlardan iboratdir. Oilaviy qadriyatlar — bu oila a‘zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, halollik, hamjihatlik kabi muhim axloqiy tamoyillar va urf-odatlar tizimi hisoblanadi. O‘zbek oilasining ildizlari va milliy qadriyatlarning shakllanishiga oid etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy an‘analar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar va amaliyotlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli tushunchadir. Mahalla institutining o‘zbek oilasining shakllanishi va qadriyatlarni uzatishdagi roli beqiyosdir. O‘zaro yordam, muhtojlarga g‘amxo‘rlik, to‘y va hasharlarda jamoaviy ishtirok etish kabi an‘analar oilaviy qadriyatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Tarixiy jihatdan erkaklar, ayniqsa, oqsoqollar oilaviy va jamoaviy marosimlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaganlar, ayollar esa marosimlarni tashkil etish, bolalar tarbiyasi va oila sha‘nini saqlashda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lganlar [3]. Bola tarbiyasida ta‘lim, e‘tiqod va kasb-hunar

o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan, bobo va buvilarning roli muhimligi ta'kidlangan

Sh. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Oilaviy qadriyatlar va oilaviy barqarorlik jamiyatning mustahkam poydevorini tashkil etadi". Oilada bizga azal azalda otib kelayotgan salomlashish odobi, kattalarga hurmat, halollik, ochiqko'ngillik, yurish-turish odobi va barcha umuminsoniy qadriyatlar o'rgatib kelinadi.

Oila mustahkamligi doim moddiy ta'minot yoki maishiy sharoitlargagina bog'liq emas. Oiladagi sog'lom psixologik muhit— sevgi, muhabbat, o'zaro hurmat, hamjihatlik, mehr-oqibat, bir-birini tushunish va qo'llab quvvatlash— uning asosiy ustunidir.

Oila naqadar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallashini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qonunlar orqali ham ko'rishimiz mumkin: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatiga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oila to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." [4] Bundan tashqari "Oila kodeksi"da ham bu haqida ko'plab qonunlar mavjud bo'lib, erta oila qurish yoshi o'g'il bolalarda 18 qizlarda esa 17 yosh deb belgilangan. Unda oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odatlarining qo'llanishi, gender tenglik masalalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Er, avvalo, o'z xotini, o'z navbatida esa, xotin ham o'z erining tarbiyachisidir. Er xotiniga samimiy hurmati va cheksiz sadoqati, pokiza ishonchi va saxiy qalbi, rostgo'yligi va to'g'riligi xotinini kamsitmay o'ziga teng ko'rishi, oilaviy munosabatlarda katta ahamiyatga ega. Er va xotin oilani hamfikir boshqaradigan bo'lsa bu oila ahil va namunali oila bo'la oladi.

Oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sir etuvchi nikoh oldi omillardan yana biri – yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlaridir[1]. Bunda yoshlar oila qurishlaridan avval oila haqida, oila mas'uliyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. O'z ideallaridagi turmush o'rtog'i qanaqa bo'lishi kerakligini tasavvur qila olishi lozim.

Imom G'azzoliy ham oila qurishda quyidagi shartlarga amal qilish lozimligini uqtirib yozgan:

Uylanishda erkak 4 jihatdan ayoldan afzal bo'lishida foyda bor:

1. Erkakning yoshi ayolning yoshidan katta bo'lishi.
2. Erkakning bo'yi ayolning bo'yidan baland bo'lishi.
3. Er xotinidan badavlatroq bo'lishi.
4. Erning mavqei ayolnikidan balandroq bo'lishi kerak.

Xotin ham erdan 4 narsada afzal bo'lishi kerak:

1. Go'zallikda ayol erkakdan ustun bo'lishi.
2. Nazokat va zarofatda ayol ayol erkakdan nozikroq va madaniyatliroq bo'lishi.
3. Ayolning fe'li erining fe'lidan yumshoqroq bo'lishi.
4. Ayol eridan ko'ra sabrliroq bo'lishi.

Yosh qiz qari kishi bilan, qari kishi yosh qiz bilan oila qurmasligi kerak. Yoshlar bir-birlarini kurib oila qurishlari kerak.

Fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

Juda yosh oila– nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;

Yosh oila – 5 yildan 9 yilgacha;

O‘rta oilaviy hayot muddati– 10 yildan 19 yilgacha;

Katta oilaviy hayot muddati – 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.[5]

Albatta yosh oila borasida muhim masalalardan biri – yoshlarning o‘zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko‘nikishi masalasidir. Bir- birini yoqtirish bosqichidan o‘tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Yigitku o‘z uyida, qiz endi yangi muhitga – yangi oila a‘zolari bilan muomala maromlarini o‘rnatishi kerak bo‘ladi. Bunda erkak kishi xotinini qo‘llab quvvatlashi va tushinishi lozim.

Oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch- totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushuvi mujim rol o‘ynaydi. O‘zaro qovushishlarni shartli ravishda uchta tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Biologik qovushish.
2. Psixologik qovushish.
3. Sotsial qovushish. [1]

Bundan biologik qovushish qolganlariga nisbatan turg‘unroq hisoblanadi va kam o‘zgaradi. Kelin-kuyovlar turlicha xarakterga ega bo‘lishlari ham mumkin. Bu oila mustahkamligi uchun xavfli deya olmaymiz. Chunki, Er- xotin doimo bir-birini to‘ldirib turadi.

Xulosa va takliflar

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlarimizning o‘rni beqiyos va hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ushbu tadqiqot orqali yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘zbek oilasi asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos an‘ana, urf-odat va axloqiy me‘yorlarga tayanadi, bu esa oilaning mustahkamligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi. Mahalla, ota-onalar va bobo-buvilarning roli kabi an‘anaviy mexanizmlar orqali avloddan avlodga uzatilgan hurmat, mehr-oqibat, mas‘uliyat va sabr-qanoat kabi qadriyatlar yoshlarga oilaviy hayotning murakkabliklarini yengib o‘tishda, o‘zaro tushunish va sadoqatni mustahkamlashda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘ladi. Bunda ota ona doimo o‘rnak bo‘lishi lozim. Yoshlar oilaviy hayotlarida andozani ota-onalaridan oladilar.

Ta‘lim dasturlariga milliy qadriyatlar va oila madaniyatini chuqurroq integratsiya qilish, "Oila psixologiyasi", "Milliy an‘analar va odob-axloq" kabi fanlarni maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab oliy ta‘limgacha bosqichma-bosqich o‘qitishni joriy etish zarur. Bu borada G‘. Shoumarov, V. Karimova va boshqa olimlar darslik kitoblar yaratganlar, biz bulardan to‘g‘ri foydalanishimiz kerak.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish, o'quv dasturlarini dolzarb muammolar va zamonaviy chaqiriqlar asosida muntazam yangilab borish, ularning hududlardagi erishuvchanligini oshirish muhim.

Ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye, radio va internet resurslarida milliy qadriyatlarni, namunali oilalar tajribasini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar, filmlar va ijtimoiy roliklar sonini ko'paytirish kerak.

Bu chora-tadbirlar yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlashga, oila institutining mustahkamligini ta'minlashga va o'z navbatida, jamiyatda barqarorlik va farovonlikka erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'.B. Shoumarov " Oila psixologiyasi" — Toshkent:"Sharq" 2011- 294 b.
2. Abdurauf Fitrat "Oila yoki uni boshqarish tartiblari" 2-nashr.Toshkent:Ma'naviyat, 2000 - 112 b
3. Karimov, A. (2019). O'zbek milliy qadriyatlari va ularning oila tarbiyasidagi o'rni. Milliy ijtimoiy qadriyatlar, 1(1). — https://uzjournals.edu.uz/nat_soc_values/vol1/iss1/3/
4. Vasila Karimova "Oila psixologiyasi" – Toshkent: 2007 151 b.
5. Rustamova, N. (2022). O'zbekistonda oila instituti rivojlanishining muammolari va istiqbollari. Ijtimoiy fanlar jurnali, 3(1). — https://uzjournals.edu.uz/soc_research/vol3/iss1/10/
6. Karimov, A. (2019). O'zbek milliy qadriyatlari va ularning oila tarbiyasidagi o'rni. Milliy ijtimoiy qadriyatlar, 1(1).